

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Tolipova Asilabonu

ADPI talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7660724>

Insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Har bir kishining baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Necha ming yillardan buyon sayqallanib, ne-ne avlodlarga yo'lchi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan xalqona hikmatlarimizda insoniy fazilatlarni tarkib topishida kitob mutolaasi, kitobxonlikni targ'ib qilishning ahamiyati haqida aytib o'tilgan.

Bugungi kunda istiqloq bizga kitobxon xalq degan azaliy yuksak mavqeyimizni qaytarib berdi, ayni chog'da kitobxonlikni shakllantirishda bilim va intellektual salohiyatimiz, imkoniyatlarimizni tubdan oshirishning muhim omili bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, tarkib toptirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayon. Shuning uchun ham Respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani hamda xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga jiddiy ahamiyat berildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo'lga qo'yildi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar, avvalo, xalqning ijtimoiy turmushini yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini yuksaltirishga, kitobxonlikni tashkil etishga, barchaga birdek go'zal va farovon hayotiy muhit yaratishga erishishga qaratildi. 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob maxsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi PF-4789-sonli Farmoyishi bu borada keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishga zamin yaratdi. 2017 yil 13 sentyabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi" PQ-3271-sonli qarorning qabul qilinishi va uning doirasida belgilangan vazifalar ham yurtimizda kitob mahsulotlarini chop etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida katta o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Bundan tashqari 2019 yil 19 mart kuni davlatimiz rahbari tomonidan "Beshta muhim tashabbus" g'oyasi ilgari surildi. To'rtinchi tashabbus Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Prezidentimiz tomonidan yildan-yilga maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish va kitobxonlikni rivojlantirishni bolalaktan shakllantirishga qaratilgan islohotlarning amalga

oshirilayotgani bejizga emas. Bolalarning barkamol shaxs sifatida ta'lim-tarbiya olishi ham aynan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunyod etiladi. Zero, "...bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".¹ Demakki, insonning, har bir oilaning, jamiyatimizning asosiy vazifasi qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismonan va ma'nan yetuk, ota-onasiga, Vataniga sodiq insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

Jamiyatimizning turli sohalarida kechayotgan islohotlarning samaradorligi ma'naviyatning shakllanishi, o'zbek xalqining tarixiy me'rosining o'rganilishi, yuksak an'analarning tiklanishi bilan bog'liq bo'lib, bularning barchasi, avvalo, oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlanadi. Chunki, inson Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya oladi va oila muhitida voyaga yetadi. Insondagi eng yaxshi fazilatlar oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida shakllanadi.

Oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotda bola ongiga singdiriladigan tarbiya, eng avvalo, ijtimoiy manfaatdorlik bilan yo'g'rilgan bo'ladi.

Shunga ko'ra, oilani mustahkamlash asosida jamiyat ma'naviyatini shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Bu muhim vazifani amalga oshirishda oila kitobxonligini rivojlantirish kata ahamiyat kasb etadi. Zero, o'zbek oilasida ota-onalar kitobxonligi va yosh avlodni kitob vositasida tarbiyalashda o'ziga xos milliy tajribaga ega.

Ammo hozirgi davrda o'zbek oilalarida va maktabgacha ta'lim tashkilotida xususan, ota-ona va tarbiyachi faoliyatida kitobxonlikning susayishi sezilmoqda.

Bularni, asosan:

- O'zbekistonda mamlakatimizda elektron kutubxonalarining yetarli darajada taraqqiy etmaganligi;
- kitob targ'ibotining zamon talabi darajasida yangi metod va usullarining ishlab chiqilmaganligi;
- kutubxonalarda kitob jamg'armasining kamayib ketgani;
- oilada kitobxonlik bilan bog'liq an'analar kamayib ketganligi;
- ayrim ota-onalarning o'z farzandlari kitobxonligi mas'uliyatini ta'lim muassasalariga yuklab qo'yganligi;

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusiga bag'ishlangan anjumanda so'zlagan nutqidan.

-maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi faoliyatida kitob mutoalasi kunlari to'g'ri tashkil qilinmaganligi;

-ommaviy axborot vositalari, radio, TV, axborot texnologiyasining oilalarga chuqur kirib borishi;

-kitobxonlikni shakllantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarining kam olib borilayotganligi bilan tavsiflash mumkin. Ushbu holat mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bunda tabiiyki, ota-onalar va tarbiyachilar faoliyatida kitobxonlikni tashkil etish ma'suliyat ortadi. Jamiyatda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashdan avval tarbiya beruvchilar tarbiyali bo'lmog'i va o'z bilimlarini takomillashtirishda kitobxonlik shakllarini kengaytirmog'i lozim.

References:

1. Abdurahmonova Sayyorahon Shaxobidinovna Communicative features and forms of the future teacher's speech GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 9, Issue 12, Dec. (2021) 231-233.
2. S. Haqberdiyeva "Kichik maktab yoshi davrida o`quvchilarda bilish jarayonlarining rivojlanishi" Jizzax – 2014.
3. "Ilk qadam" davlat o`quv dasturi 4.02. 2022-yil. 1-sonli yangi nashri.
4. Z.Qosimova Ta'lim texnologiyalari.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2014.